Cho’kichlab ishlangan bir o’rkachli tuya tasviri

O’zR FA Milliy arxeologiya markazining bir guruh ilmiy xodimlaridan iborat ekspeditsiya Surxondaryo viloyati Sherobod tumani G’oz va Qattiq-Qamish qishloqlari atrofidagi Oqtosh tog’larida arxeologik qidiruv-qazuv ishlarini olib bordilar.

Ekspeditsiya chog’ida 1970-yillarda O’.I. Islomov tomonidan o’rganilgan Qattiq-Qamish 1,2 va G’oz 1 toshga ishlov berish ustaxonalari hududlarida tadqiqotlar o’tkazildi. O’.I.Islomov o’z vaqtida ta’kidlagan kremniylashgan slanets konlari aniqlandi. Biroq o’tgan yarim asrdan ziyodroq vaqt mobaynida hududlardagi ishlov berilgan tosh buyumlar tabiiy ta’sirlar natijasida aniqlab bo’lmaydigan darajada deflyatsion o’zgarishlarga uchragan, shuning uchun ekspeditsiya belgilangan hududlarda arxeologik tadqiqotlar o’tkazishni maqsadga muvofiq emas topdi.

So’ngra ekspeditsiya G’oz qishlog’i atrofidagi Oqtosh tog’i hududida qidiruv ishlarini davom ettirdi. Natijada hududdan bir dona cho’kichlab ishlangan dromedar tuyasining tasviri topildi. Suratning hajmi 75x90 sm. Surat tekis yuzali ohaktosh qoyaga tushirilgan va quyoshda kuygan mog’or bilan qoplangan. Hajmiga ko’ra rasmda yosh tuya (bo’taloq) aks ettirilgan.



Shuningdek, ekspeditsiya ushbu hudud bo’yicha etnografik va geografik tushunchalarini oshirish maqsadida mahalliy aholi orasida surishtiruv ishlarini olib bordi. Natijada hududdagi tosh konlarining joylashgan o’rni, qoyatosh rasmlardan tashqari mahalliy aholi vakillaridan birining xonadonida qadimgi otning bosh chanog’i to’liq saqlanayotganligi haqida xabar topdi va uni borib ko’rdi. Ushbu otning bosh chanog’i saqlanish darajasi va qadimgi tuproq yotqiziqlaridan topilganligiga ko’ra bir necha million yillar oldingi ekanligi taxmin qilinmoqda.



Ushbu topilma paleoantologiya sohasi mutaxassislari orasida katta ilmiy qiziqish uyg’otishi mumkin.